

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XUDAYQULOV DO'SMUROD XIDIROVICH

**SOHIBQIRON AMIR TEMUR AXLOQ FALSAFASINING ZAMONAVIY
TALQINI**

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (Etika)

**FALSAFA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Xudayqulov Do‘samurod Xidirovich

Sohibqiron Amir Temur axloq falsafasining zamonaviy talqini.....3

Худайкулов Дусмурод Хидирович

Современная интерпретация нравственной философии Амира Темура.....19

Khudaykulov Dusmurod Khidirovich

A modern interpretation of the moral philosophy of the Amir Temur.....37

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....41

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XUDAYQULOV DO'SMUROD XIDIROVICH

**SOHIBQIRON AMIR TEMUR AXLOQ FALSAFASINING ZAMONAVIY
TALQINI**

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (Etika)

**FALSAFA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Fal502 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiyasi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fs-ik.uz), O‘zbekiston milliy axborot agentligi sahifasida (www.aza.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xusanov Bahodir Ergashevich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abdullayeva Nasiba Bo‘ronovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc 03/30.12.2019.F.01.05 raqamlı Ilmiy kengashning 2024-yil “25”-iyul soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Yoshlar ittifoqi markazi, Tel.: (99871) 246-67-72; e-mail: ik-falsafa@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (66-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “12” iyulda tarqatildi.

(2024-yil “25” iyuldaggi 11-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S.Saifnazarov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, falsafa fanlari
doktori, professor

G.M.Shadimetova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, falsafa
doktori (PhD), dotsent

O‘G.Tilavov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon taraqqiyoti negizini tashkil qiladigan shaxs ma’naviy-axloqiy kamolotini yuksaltirib borish bugungi kunda muhim konstruktiv ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, taraqqiy etib borayotgan jamiyatda axloq masalalari va uning tarixiy ildizlarini o‘rganishda Sohibqiron Amir Temur falsafasining ilmiy ahamiyatini anglash orqali unutilayotgan umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatni shakllantirish hamda rivojlantirish uchun hayotiy ehtiyojni paydo bo‘lishi insoniyat oldida turgan dolzARB masalalardan biriga aylanmoqda. Bunda, insonni axloqiy jihatdan komillikka yetaklovchi umuminsoniy madaniyat tarkibi hisoblangan axloq falsafasining o‘rni nihoyatda beqiyosdir. Zero, axloq falsafasi va axloqiy tarbiya bugungi radikal o‘zgarishlar jarayonini me’yorlashtirishi bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish yo‘lida insonparvarlik tamoyillariga ham asoslanmoqda.

Dunyoning qator davlatlarida Amir Temurning sharaflı hayot yo‘li, siyosiy boshqaruv tizimi, jahon tarixiga qo‘shgan hissasi, axloqiy fazilatlari ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida tahlil etilmoqda. Uning falsafiy-ma’rifiy merosidan hozirgi davr ruhi bilan bog‘liq o‘zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan muammolarni akseologik va prakseologik kontekstda tahlil qilish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqolar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Cambridge Studies in Islamic Civilization” (Angliya)da Amir Temur davlatining paydo bo‘lishi va boshqaruv tartiblari, Sarbon University (Fransiya)da Amir Temurni dunyo san’ati va madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni, shuningdek, adolatparvarlik va qonun ustuvorligiga doir masalalar ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilmoqda.

Mamlakatimizda Amir Temurning adolatli jamiyat barpo etish yo‘lidagi sa’y-harakatlari, uning bugungi davlatchiligidan yangi mazmun bilan boyitishda tutgan o‘rni, qolaversa, yoshlarga vatanparvarlik va xalqparvarlik, halollik va adolat, sadoqat va diyonat kabi axloqiy tamoyillarni o‘rgatishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. “Men har bir askar, Vatanning har bir posboni Amir Temur va ulug‘ lashkarboshilarimiz o‘gitlarini, ularning harbiy merosini chuqur bilishi kerak, deb qayta-qayta ta’kidlab kelaman. Bu o‘lmas va bebaho meros hozirgi kunda ham har birimizning qalbimizga cheksiz g‘urur baxsh etadi, muqaddas tuprog‘imizga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytiradi”¹. Sohibqiron Amir Temur davrida jamiyat hayotidagi ijtimoiy barqarorlik va diniy bag‘rikenglikning ta’minlanishi kabi axloqiy qarashlarning bugungi yoshlarda vatanparvarlikni shakillantirib, bonyodkorlik va ulug‘ maqsad sari intilish kabi tuyg‘ularni uyg‘otishda ahamiyati ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 28-iyuldagи PQ-3160-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlар samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil

¹ Mirziyoyev Shavkat: Armiya faqat qurol va aslaha bilan emas, ona Vatan uchun jonini ayamaydigan harbiylar bilan qudratlidir. 14.01.2021 // <https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoyev-armiya-faqat-qurol-va-aslaha-bilan-emas-on-a-vatan-uchun-jonini-ayamaydigan-harbiylar-bilan-qudratlidir>

8-oktabrdagi PF-5847-sonli “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-sonli “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlanish” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Sohibqiron Amir Temur davri va shaxsiyatiga qiziqish o‘rtta asrlardan boshlangan bo‘lib, eng qimmatli ma’lumotlar ispaniyalik sayyoh Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga sayohat kundaligi”, Ibn Arabshohning ikki qismdan iborat “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” (Temur tarixining ajoyibotlari), Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” kabi manbalari orqali tarqalib asrlar davomida dunyo xalqlari tomonidan o‘rganib kelgingan².

Amir Temur shaxsiyati va u barpo etgan sultanatga qiziqish Yevropada XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab kuchayib borgan. Bu borada fransiyalik temurshunoslardan Lyusen Keren, Valter Jerar, Lyusyen Buva kabi olimlar salmoqli tadqiqotlar olib borganlar³. Shuningdek, L.Lyanglening “Temur hayoti”, AQSHlik tadqiqotchi B.Manzning “Temur davlatining boshqarilishi va ma’muriy tuzilishi”, Hilda Hukhemning “Yetti iqlim sultonni”, Jon Vudsning “Temuriylar sulolasi” hamda zamonaviy tadqiqotlardan Z.Rajkayning⁴ “Temuriylar imperiyasi hamda Min Xitoy: ikki imperiya munosabatlariga oid nazariyalar va yondashuvlar” kabi tadqiqotlarida ham Amir Temurning faoliyati haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi olimlari tomonidan ham Amir Temur va temuriylar davrida tasavvuf ta’limotining taraqqiyoti, xususiyatlari, mazmun-mohiyati, tasavvufning ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy jihatlariga doir masalalarni yoritishda salmoqli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, V.V.Bartold, A.Yu.Grekov, M.I.Ivanin, V.V.Belenitskiy, K.Kazanskiy, N.S.Kirabayev, K.Sh.Xafizova, I.Slytskiy⁵, N.Ostromov, S.M.Dimidov, Z.Kuli-Zoda, K.Olimov,

² Руи Гонсалес де Клавихо. Самаркандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. О.Тоғаев таржимаси. – Тошкент: О‘zbekiston, 2010. – Б. 101; Ибн Арабшоҳ. Темур тарихида тақдир ажойиботлари (Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур) // Сўзбоши, изоҳлар ва таржимон У.Уватов. 1-2 китоблар – Тошкент: Мехнат, 1992; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Toshkent.: Шарқ, 1997. – Б. 383.

³ Lucien Bouvat. L’Empire Mongol. Timour et ses successeurs. – Paris: Boccard, 1927. – P. 379; Gérard Walter. Le mémorial des siècles – XIVe siècle les hommes Tamerlan. – Paris: Editions Albin Michel, 1963. – P. 382.

⁴ Хуққэм X. Етти иқлим султони: Хужжатли-тарихий қисса / Пер. с русс. – Т.: Адолат, 1999. – 320 б.; Rajkai Z.T. The Timurid empire and the Ming China: Theories and approaches concerning the relations of the two empires (Doktori Disszertáció). – Budapest, 2007. – 212 p.

⁵ Слуцкий И. В защиту Тамерлана // Туркестанский сборник. Том 508. 1909. – С. 72; Хафизова К.И. Послание Тимура 1395 г. В Китае // Тез. докл. XX научной конференции “Общество и государство в Китае”. – М.: Наука, 1989. – С. 126-129.

I.I.Umnyakov, A.Yu.Yakubovskiy⁶, A.D.Yandarov kabi sharqshunos olimlar o‘z tadqiqotlarida Amir Temurning sultanat boshqaruvi faoliyati hamda axloqi qarashlari borasidagi ratsional va falsafiy jihatlarini ochib berilgan.

Mustaqillik yillarda yurtimizda Amir Temur siyosining ijtimoiy-siyosi, axloqiy va ma’naviy jihatlarining ayrim tomonlarini o‘rganishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, I.Mo‘minov⁷, U.Uvvatov, H.Boltaboyev, M.Xayrullayev, O.Bo‘riyev, B.Valixo‘jayev, M.Imomnazarov, S.Karimov⁸, M.Muhiddinov, G.Navro‘zova, M.Oripov, J.Yaxshilikov⁹, M.Qodirov, S.Raxmonov¹⁰, A.A.To‘laganov kabi faylasuflar bilan bir qatorda tarixchi olimlardan B.Axmedov, A.Asqarov¹¹, B.Ermatovlar hamda Sh.Sirojiddinov, M.Eshmuhammedova, Hamitdjon Homidiy kabi adabiyotshunos olimlar tomonidan ham tadqiq qilingan. Biroq mazkur tadqiqotlarda aynan Amir Temur axloq falsafasining rivojlanish tendensiyalari, zamonaviy talqini ijtimoiy falsafiy nuqtayi nazaridan maxsus tadqiq etilmagan. Aynan ushbu holat mavzumizning ilmiy nuqtayi nazaridan dolzarbligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Etika va estetikaning zamonaviy dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Amir Temur axloq falsafasining zamonaviy falsafiy tafakkur rivojida tutgan o‘rni va ahamiyatini ilmiy falsafiy nuqtayi nazaridan tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Amir Temur axloqiy qarashlaridagi vatanparvarlik, adolat, komil inson, faqirlarga yordam ko‘rsatish kabi ijtimoiy-ma’naviy adolat va insonparvarlik qonuniyatlarini falsafiy tahlil qilish;

Amir Temurning davlat boshqaruvida islom ulamolari bilan mantiqiy muvozanatni o‘rnatishi va shunga mos ravishda davlat qudratini mustahkamlashga qaraqtilgan ijtimoiy-axloqiy qonun qoidalarni qabul qilganligini ilmiy nuqtayi nazaridan yoritish;

Sohibqiron Amir Temurning sultanat boshqaruvidagi strategiyasini falsafiy-axloqiy nuqtai nazaridan tahlil qilish (“Temur tuzuklari” misolida);

Sohibqiron Amir Temur axloq falsafasining zamonaviy talqinini Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur fi tarixiy Taymur” va Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlarini qiyosiy tahlil qilish orqali ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sohibqiron Amir Temur axloq falsafasining zamonaviy talqini va “Temur tuzuklari”ning falsafiy-axloqiy tahlili tanlagan.

⁶ Якубовский А.Ю. Самарканд при Темуре и Темуридах. Очерк. – Ленинград, 1933. – С. 84.

⁷ Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 56.

⁸ Каримов С.К. Амир Темур ижтимоий-сиёсий таълимотининг асосий тамойиллари. Ўрта Осиё социологик фикрлари тарихидан (Ўқув кўлланма). – Самарқанд: СамДУ, 2008. – Б. 147.

⁹ Яхшиликов Ж., Аҳадов Ш. Темурийлар маънавияти (Илгариги манбалар ва янги тадқикотлар асосида). – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 163.

¹⁰ Рахмонов С. Амир Темур даврида тасаввufning ижтимоий-маънавий роли. Фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Самарқанд, 2021. – Б. 49.

¹¹ Асқаров А., Оқилов О. Темур ва Улугбек даври тарихи. – Т.: Qomuslar bosh tahririyyati, 1996. – 264 б.

Tadqiqotning predmeti Amir Temur davrida jamiyat hayotining axloqiy xususiyatlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik va mantiqiylik, umumlashtirish, kontent analiz, tizimli tahlil, ijtimoiy so'rov, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Amir Temur axloq falsafasining bosh mezoni bo'lgan vatanparvarlik, adolat, ijtimoiy himoya kabi qarashlarning yoshlarni ajdodlarga hurmat, ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati axloqiy me'yorlar va tamoyillarga asoslangan holda falsafiy nuqtayi nazardan olib berilgan;

Amir Temurning axloq falsafasida vatanparvarlik, tinchlikparvarlik, hurfikrlilik kabi axloqiy tamoyillarning ratsional mohiyati, bag'rikenglik, kechirimlilik, yaratuvchanlik singari axloqiy sifatlarning empirik imkoniyatlari hamda davlatni idora qilishning sadoqat, hamiyat, muruvvatga asoslangan sifatlarni zamonaviy axloqiy tendensiyalar bilan ratsional jihatdan mos kelishi asoslangan;

Globallashuv sharoitida "Temur tuzuklari"ning markaziy axloqiy g'oyasi bo'lgan adolat vaadolatparvarlikni ulug'lash kabi tarbiyaga oid qarashlarning mohiyati axloq falsafasining umumnazariy masalalaridan ajratilgan holda uning yurt tinchligi hamda davlat barqarorligiga erishishning ma'naviy ta'siri isbotlangan;

Sohibqiron Amir Temur axloqiy qarashlarining falsafiy xususiyatlari orqali yoshlarning tafakkurini boyitish, tarbiyalash hamda hayot falsafasini o'zgartirishning kommunikativ, integrativ va metodologik asoslari germenevtik jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Amir Temurning adolatli boshqaruvi, Temur tuzuklarida ilgari surilgan ijtimoiy-axloqiy qarashlarni tahlil qiluvchi falsafiy qarashlar, nazariy va empirik tavsiyalar tayyorlangan;

O'zbekistonda milliy axloq falsafasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlarini yaratish, Etika (Axloqshunoslik) ilmida Amir Temur hayot falsafasini bilan bog'liq yangi tadqiqotlarni boshlash, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlashda Sohibqiron o'gitlarining zamonaviy va ta'sirchan vositalaridan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagি ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingani, OAK ro'yxatidagi tegishli jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati falsafa, dinshunoslik, psixologiya, sotsiologiya mutaxassisliklari bo'yicha o'quv dasturlari doirasida din, falsafa, psixologiya, sotsiologiya tarixi mavzularini ishlab chiqishda, "Temurbeklar maktabi" o'quvchilarini tayyorlaydigan ta'lim muassasalarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yoshlarni “milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasiga safarbar qiluvchi ijtimoiy soha muassasalari, o‘z-o‘zini boshqaruv organlari amaliy faoliyatlarida foydalanishlari mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Amir Temur axloq falsafasi ijtimoiy-ma’naviy rolini tadqiq etish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar va takliflar asosida:

Amir Temur axloq falsafasining bosh mezoni bo‘lgan vatanparvarlik,adolat, ijtimoiy himoya kabi qarashlarning yoshlarni ajdodlarga hurmat, ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati axloqiy me’yorlar va tamoyillarga asoslangan holda falsafiy nuqtai nazardan ohib berilganligiga oid taklif tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tomonidan nashr etilgan “O‘rtta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi” mavzusidagi ensiklopediyani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining 2023-yil 19-dekabrdagi 02/569-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar Amir Temur axloqiy merosini o‘rganish ta’lim va tarbiya mazmunini takomillashtirishning muhim omili ekanligi, uning yoshlar axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlangan;

Amir Temuring axloq falsafasida vatanparvarlik, tinchlikparvarlik, hurfikrlilik kabi axloqiy tamoyillarning ratsional mohiyati, bag‘rikenglik, kechirimlilik, yaratuvchanlik singari axloqiy sifatlarning empirik imkoniyatlari hamda davlatni idora qilishning sadoqat, hamiyat, muruvvatga asoslangan sifatlarni zamonaviy axloqiy tendensiyalar bilan ratsional jihatdan mos kelishiga oid taklif tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasining O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ilgari surilgan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” nomli bosh g‘oyasini hayotga tadbiq etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2023-yil 21-dekabrdagi 02/02-71-sonli dalolatnomasi). Natijalar yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan;

Globallashuv sharoitida “Temur tuzuklari”ning markaziy axloqiy g‘oyasi bo‘lganadolat va adolatparvarlikni ulug‘lash kabi tarbiyaga oid qarashlarning mohiyati axloq falsafasining umumnazariy masalalaridan ajratilgan holda uning yurt tinchligi hamda davlat barqarorligiga erishishning ma’naviy ta’siriga oid taklif tavsiyalardan Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining targ‘ibot faoliyatida foydalanilgan (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-yil 26-maydagi 110-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar yoshlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashining boyitishga va ularda ajdodlarimiz ma’naviy merosiga hurmat tuyg‘usini mustahkamlashga hissa qo‘sghan;

Sohibqiron Amir Temur axloqiy qarashlarining falsafiy xususiyatlari orqali yoshlarning tafakkurini boyitish, tarbiyalash hamda hayot falsafasini o‘zgartirishning kommunikativ, integrativ va metodologik asoslari germenevtik jihatdan asoslanganligiga oid taklif tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy

teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” ko‘rsatuvini dasturlarini boyitishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2022-yil 13-maydagi 02-3-623-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar Amir Temur axloqiy hayot falsafasining milliy va umumbashariy ahamiyati yangilanayotgan O‘zbekiston yoshlarining tarbiyasiga metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatasiysi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta, jumladan, 1 ta xalqaro, 2 ta ilmiy-nazariy konferensiyalarda ma’ruzalar ko‘rinishida taqdim etilgan va aprobatasiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda) e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya “Kirish”, uch bob, “Xulosa” va “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”, “Ilovalardan” iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natjalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natjalarning amaliyatga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlarning soni, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi asoslangan.

Dissertatsiyaning “Amir Temur axloq falsafasining ijtimoiy-ma’rifiy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Sohibqiron Amir Temurning turkiy xalqlarni birlashtirishi va bu orqali markazlashgan davlat tuzishi, natijada temuriylar davlatiga asos solishi, uning avlodlarining keyingi davrlarda amalga oshirgan olamshumul ishlari jahon siyosatdonlari tomonidan yuqori baholanganligi nazariy jihatdan ochib berilgan. Amir Temur axloq falsafasining ijtimoiy-ma’rifiy asoslari o‘rganishga qaratilgan umumnazariy va metodologik masalalar hamda Sohibqiron Amir Temur hayot falsafasiga doir temurshunos olimlarning tarixiy haqiqatni to‘g‘ri baholash g‘oyasi bilan bog‘liq axloqiy jihatlari ochib berilgan Tarixan butun insoniyat o‘rtasidagi axloqiy g‘oyalar axloqiy tamoyillar va ma’naviy munosabatlar orqali inson falsafiy tafakkur tarziga ta’sir etib kelgan. Jumladan, xalqimizning insoniy munosabatlar asosini axloq va axloqiylik mezonlari tashkil qiladi. Axloq – ma’naviyatning amalda namoyon bo‘lishidir. U ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va iymon insonning xulq-atvorida o‘ziga xos tarzda aks etadi. Inson ma’naviyati esa axloqiy fazilatlar orqali yuzaga keladi. Shu bois ham, ma’naviyat – his etiladigan, anglanadigan, oqilonalikka asoslangan botiniy qudrat bo‘lsa, axloq bevosita har bir shaxsning o‘zgalarga nisbatan ma’naviy munosabatini anglatadi. Shu sababli axloqiy tushunchalar ayni paytda ma’naviy tushunchalar sifatida e’tirof etiladi. Zotan axloq insof vaadolat, iymoniylilik va halollik, mehr va muruvvat,

sahovatpeshalik va bag'rikenglik, rahmdillik va muruvvatlilik, mehribonlik va g'amho'rlik singari ma'naviy tushunchalarni insонning hayotiy faoliyatida yuzaga chiqaradigan ma'naviy hodisadir. Amir Temurning Sohibqiron deb ta'riflanishidan yuksak axloqiy fazilat egasi bo'lgan markazlashgan sultanat qurban sarkarda sifatidagi siy়mosi har qaysi davrda ham ahamiyatli bo'lgan. Chunonchi, Sohibqiron Amir Temur falsafasini tarixiylik prinsipi asosida obyektiv o'rganishi milliy falsafa rivoji uchun zarur ilmiy xulosalar beradi.

Dissertatsiyada Sohibqironning el dardiga sherik bo'lish ahdi, adolatli siyosati, aqliy mushohadasini amalda mamkatimiz tarixining bir qancha tarixiy jarayonlari orqali tahlil qilish mumkinligi asoslangan. Xususan, XIV asrning 50-60-yillarida Movarounnahr hududida mavjud bo'lgan mayda mulklarga bo'linib, hukmdorlar orasida siyosiy kurash jarayonlari juda kuchayib ketganligi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan juda xarob va achinarli holga tushib qolganligini ta'kidlash lozim. Shunday vaziyatda Amir Temurning davlat tepasiga kelishi bilan eng oldin amalga oshirgan siyosati mahalliy beklarni bir-biri bilan birlashib ish ko'rishga harakat qilgan. Shuningdek, mamlakat hududidagi siyosiy obro'sini yetarli darajada mustahkamlab, barcha hokimlarni bir markaz atrofiga birlashtirishga va uni siyosiy jihatdan mustahkamlashga erishgan. Xususan, chetdan amalga oshiriladigan tashqi hujumlar va ichki nizolarni bartaraf qildi. Amir Temur markazlashgan davlatida tinchlik va osoyishtalik hukm surishi uchun adolatli siyosat yuritgan.

Sohibqiron Amir Temur davrida Movarounnahr hududi mustamlakachilik zulmidan butunlash erkinlikka erishganligini ta'kidlash mumkin. Shuningdek, Sohibqiron tomonidan markazlashgan, qonun va adolat asosiga tayanuvchi, shu vaqtgacha mamlakatda amal qilmagan, Sharq va G'arb davlatchilik boshqaruvida hamda amaliy hayotida ro'y bermagan, mamlakat hududidagi barcha fuqarolarning kelib chiqishidan qat'i nazar barcha manfaatlarini ko'zda tutuvchi va himoya qiluvchi davlat boshqaruv tizimini fundamenti qo'yilgan. U barpo etgan markazlashgan davlat aholisining ma'naviy jihatdan kayfiyati mutlaqo yangilandi, ijtimoiy jihatdan faollik pozitsiyasi qaytadan yangilandi.

Movarounnahrda butun Sharq uchun namuna bo'lgan dunyoviy va islomiy qonunchilik nazariyasi yaratilgan edi. Amir Temur uni yuqori davlat siyosati darajasiga olib chiqdi. Masalan, Amir Temur davlatida sud tizimi yaratilib, u aniq ixtisoslashgan edi. Binobarin, fuqarolik ishlari bilan adliya vaziri, ma'naviy-axloqiy tarbiya muammolari bilan islom qozisi, harbiylar huquqi masalalari bilan askar qozisi shug'ullanganliklari kabi g'oyalar ilgari surilgan. Darhaqiqat axloqiylikning darjasи shaxsningadolatliligi, o'zining manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo'ymasligi va boshqa asoslarda namoyon bo'lishini hozirda kuzatishimiz mumkin. O'z navbatida, Amir Temur siy়mosidagi yuqori darajadagi adolatlilikka asoslangan turmush tarzi bir vaqtning o'zida axloqiy yuksak darajani namoyon etgan. Amir Temur taqvodor, xudojo'y va diniy bag'rikeng davlat rahbari edi. Uning huzuriga musulmon ham, xristian, katolik, iuda dinlari vakillari ham, budparast-shamon ham kirar edi. Ularning barchasiga sharqona tavoze bilan muloqotda bo'lib, izzat-ikrom ko'rsatar edi.

Amir Temur hukmdorlik vaqtida kuchli insonlarni o‘zidan kuchsiz bo‘lgan shaxslargaadolatsizlik qilmaslik zarurligini aytib o‘tgan. Mamlakatlar farovonligi borasida o‘ziga qaram insonlar ahvoldidan xabar olish lozimligi ta’kidlangan. Markazlashgan qudratli davlatni boshqarish uchun qurollarni mustahkam sharaf va nomus bilan qo‘lga olishni hamda vatan himoyasida sobit qadam bilan turishni aytgan. “Agarda o‘zaro nizolarga yo‘l qo‘ysalaringiz, dushmanlar to‘polon va tartibsizliklarni boshlaydilarki, ularni jilovlashning iloji qolmaydi. Sizlar bir jon, bir tan bo‘lsalarlingiz, hech kim mening so‘nggi vasiyatlarimni bajarishlaringizga monelik qila olmaydi”¹². Bizning fikrimizcha, ushbu vasiyatnomaning axloqiy mohiyati va zaruriyati hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Amir Temur tomonidan Samarcand atrofida ajoyib saroylar qurdirganligi e’tirofga sazovor hisoblanadi. Xususan, Ulug‘bek zamonida Samarcand yanada gullab yashnadi. Muhtasham binolar “Shohizinda”, “Go‘ri Amir” maqbarasi kabi bir qator yirik arxitektura ansambllari, shuningdek, Registonda katta xonaqo, madrasa va uning janubida katta hammom qurildi. Hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdo xususan, ichki savdo yanada rivojlandi. Go‘ri Amir ansamblining ko‘rki va faxri uning maqbaralaridagi gumbazlaridir. Gumbazdagi rangdor naqshlar yorqinligi va serjiloligi bilan har qanday kishini hayratga soladi. Xullas, bu go‘zal va betakror maqbara Amir Temur xotirasigagina yodgorlik bo‘lmassdan, balki nomsiz me’morlar, mohir rassomlar, xalq ijodi qudratining timsoli naqqoshlar sharafiga ham o‘rnatilgan abadiy haykaldir.

Amir Temur o‘z sultanatining markazi bo‘lgan Samarcandni san’at va adabiyotning o‘chog‘iga aylantirish maqsadida hunarmandlarni, rassomlarni, me’morlarni, olimlarni olib keladi. Temur zamonida Samarcanda, Xorazm, Isfaxon Sheroz, Xalab, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi ustalarining qo‘li bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar, shahar tashqarisida esa bog‘-rog‘lar vujudga keltirildi.

Bizningcha, Amir Temur axloq falsafasining metodologik asoslari xalqimizning yuksak ma’naviy, ilmiy manbasi hisoblangan asarlardagi axloqiy fazilatlarning ulug‘vorligiga milliy va umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan baholash hamda o‘tmish ilmiy-madaniy merosimizga daxldor pandnomalarning axloqiy-estetik mohiyatini ilmiy tadqiq qilish, ularning qadriyatshunoslik tabiatini yoritish manbalardan olingen axloqiy tushunchalarga nisbatan zamonaviy nuqtayi nazardan yondashish jarayonidagi ustuvor ahamiyatini dalillaydi.

Dissertatsiyaning “**Temur tuzuklari**”da **axloq falsafasi masalalari**” deb nomlangan ikkinchi bobida Amir Temuradolatli hukmdor sifatida o‘zining tajribalari va falsafiy qarashlarini “**Temur tuzuklari**” asarida aks etirgan bo‘lib, ushbu asarning axloqiy mazmunini ilmiy tadqiq etish o‘zbek milliy axloq falsafasini rivojlantirish jarayonidagi roli asoslangan.

Dissertatsiyada Amir Temur fazilatlarining yangi avlod uchun zarurligi va shartligini ilmiy asoslash, buyuk ajdodimizning axloqi va ma’naviy merosini o‘rganishga doir umumnazariy masalalarni, avvalo, Amir Temurning axloqiy qarashlari, uning ulug‘ hukmdor va ma’naviyat rahnamosi bilan bog‘liq jihatlar e’tirofga loyiqidir. Shu ma’noda, Amir Temurning axloq falsafasi inson – jamiyat –

¹² Amir Temur vasiyati. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 7.

madaniyat – ma’naviyat uyg‘unligiga asoslanadi. Falsafiy tafakkur tarixida munosib o‘rin tutgan Sohibqiron Amir Temur faoliyatini tadqiq etish milliy axloq falsafasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bu borada O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov yozishicha: “Amir Temur shaxsi va uning Tuzuklari haqida “Temur Tuzuklari”ni har gal o‘qir ekanman, xuddiki o‘zimga qandaydir ruhiy kuch quvvat topgandek bo‘laman. O‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan inson ma’naviyati uchun bugun ham oziq bo‘ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko‘p bor ishonch hosil qilganman”¹³, – deya yuksak baho bergen. Bu bir jihatdan, Amir Temur shaxsiga nisbatan hurmat tuyg‘usini, ikkinchi jihatdan, Tuzuklarning tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati haqida berilgan bahodir.

Amir Temurning axloq falsafasi inson – jamiyat – madaniyat – ma’naviyat uyg‘unligiga asoslanadi. Buni quyidagi jihatlar orqali alohida asoslash mumkin:

birinchidan, inson va jamiyat, xalq va davlat taraqqiyotining axloqiy asoslarini o‘rganish hamda tahlil qilish;

ikkinchidan, ustuvor axloqiy g‘oyalarning “Temur tuzuklari”dagi in’ikosini ilmiy asoslash;

uchinchidan, tafakkur va dunyoqarashni o‘zgartirish, yoshlarni qat’iyatli, shijoatli, vatanparvar qilib tarbiyalashning Amir Temur axloqiy merosini nazariy asoslarini mustahkamlash;

to‘rtinchidan, Sohibqironning ibratli hayoti va faoliyati Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini mustahkamlovchi pragmatik asos ekanligini o‘rganish.

Tarixiy shaxslar xarakteri va hayotidagi davrlar sinovidan o‘tgan ibratlarni o‘rganish, mashhur tarixiy siymolarning faoliyatini tadqiq etish har qaysi davrda ham ahamiyatli bo‘lgan. Mustaqillik sharofati tufayli mamlakatimizda tarixda Amir Temurning hayotiy tajribalari va falsafiy qarashlarini jiddiy o‘rganishga kirishildi, xorijlik olimlarning Sohibqiron bobomiz haqidagi ilmiy, ma’rifiy va tarbiyaviy tadqiqotlari bilan tanishish imkoniyati yuzaga keldi. Amir Temur o‘z hayoti va faoliyatida har-bir yuzaga kelgan muammoli vaziyyatni o‘z nazoratiga olgan edi. Har bir masalani oqilona yo‘l bilan hal qilishga harakat qilishi diqqatga sazovordir. Shuningdek, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda adolat tamoyilini yuqoriga doimo ko‘targan edi. Xalqning nochor va kambag‘al qatlamini o‘z himoyasiga olganligi hamda ularga xayr-u-ehsonlar berganligi ayni haqiqat hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, axloq va huquq, fazilat va qonun munosabatlari Amir Temurning axloq falsafasida muhim o‘rin tutadi. Umuman olganda, axloqiy talab huquqiy qonun-qoidalarda o‘z aksini topadi, Bu borada faylasuf Abdulla Sherning “Axloq huquqqa nisbatan ancha keng qamrovli. Chunonchi, huquqiy qonunlar mavjud tuzumga, muayyan shaxs va yosh doirasidagi kishilarga tadbiq etilsa, axloqiy qoidalari, hikmatlar, pand-o‘gitlar barcha tuzumlar hamda turli yoshdagি kishilarga birdek taalluqli bo‘ladi. Shuningdek, huquqiy me’yorlar aniq adresni taqozo qiladi, axloqiy qoidalari esa

¹³ Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 45.

mavhumligi va umumiyligi bilan ajralib turadi”¹⁴, degan fikri “Temur tuzuklari”da ta’kidlangan tartib-qoidalar mohiyatan axloqiy ekanligini ko‘rsatadi.

Bizning fikrimizcha, Amir Temur, fan va madaniyat taraqqiyoti – jamiyatning ma’naviy asosi ekanligini o‘z harakatlari orqali amaliy jihatdan ko‘rsatib bergen. Jumladan, o‘zi asos solgan markazlashgan davlat hududida madrasalar, maktablar qurdirdi, ilm bilan shug‘ullanuvchi o‘qituvchilar uchun nafaqalar tayinladi, xalqqa bir qator qulay imkoniyat va sharoitlarni yaratib berdi. Sharq dunyosining qaysi shahriga borsa, u yerlik olimu fozillar bilan suhbat qilib, bahslashib, ularni Samarqandga taklif etdi. Uning hukmronligi davrida Samarqand firdavsmonand Mavlono Abdumalik, Sayyid Sharif Jurjoni, xoja Muhammad Zohid Buxoriy, Mavlono Ahmad, Abdulqodir Marog‘iy, Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru, Ibn Arabshoh, Ibn Xoldun kabi o‘nlab quvvai hofizali aql-zakovat sohiblari qo‘nim topib, ijod qilganlar. Dunyo olimlari yozgan asarlarda Sohibqironning buyuk axloqiy va ma’naviy fazilatlari ochib berilgan. Xususan, Shomiy va Ali Yazdiy qalamiga mansub “Zafarnoma” kitobini alohida ta’kidlash zarur. Shu bilan birga, Ibn Arabshohning “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari” asarida Amir Temur siymosining axloqiy jihatlari tarixiy nuqtayi nazardan ochib berilgan. Qolaversa, Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” va Toshkandiyning “Temurnoma” asarlarida esa Amir Temurning adolat haqida qarashlarining siyosiy jarayonlarga ta’siri talqin qilingan. Ayniqsa, ispan elchisi bo‘lgan Klavixoning “Kundalik”larini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Shu ma’noda, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Xalqimiz azaldan yuksak qadrlab keladigan, hamma narsadan ustun qo‘yadigan adolat tuyg‘usini hayotimizda yanada keng qaror toptirishni biz birinchi darajali vazifamiz, deb hisoblaymiz. Bu borada Sohibqiron bobomizning: “Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin!” degan chuqur ma’noli so‘zlari har birimiz uchun hayotiy e’tiqodga aylanishi zarur”¹⁵, degan fikri ayni haqiqatdir.

Bizningcha, Sohibqiron Amir Temurning rostgo‘ylik haqidagi qarashlari undagi ijtimoiy ideal talablarining mazmunini to‘ldiradi. Shu bois Amir Temur axloqiy idealiga bo‘lgan ehtiromning umumnazariy mohiyatida “Amir Temurni anglash – o‘zligimizni anglash demakdir” – degan g‘oya mujassam. Bu g‘oya axloq falsafasi keng va boy bo‘lgan Amir Temur idealining faoliyatini chuqur o‘rganishni nazarda tutadi. Qolaversa, bu g‘oyaning mazmuni ilmiy jamoatchilik tomonidan asoslangan, dalillangan va e’tirof etilgan. Bugun milliy yuksalish sari dadil qadam qo‘ygan Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida hamda hozirda murakkab davrni boshdan kechirayotgan bugungi sinovlarni mardlik, jasorat, bilim va tarbiya bilan yengishda barchamiz Sohibqiron Amir Temur bobomiz hayoti va o‘gitlarini namuna qilish maqsadga muvofiq. Xalqimiz Sohibqiron bobomizning ma’rifiy merosini ma’rifatparvar ziyorilarimiz talqini orqali yaqindan o‘rgana boshlaganiga endigiga o‘ttiz ikki yil bo‘ldi.

Amir Temurning qaysi fazilatlari biz uchun kerak, zarur va shart ekanligini ilmiy asoslash, buyuk ajdodimizning axloqi va ma’naviy merosini o‘rganishning

¹⁴ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2014. – B. 51-54.

¹⁵ Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlashtirish barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – B.17.

zaruriyati bilan bog‘liq umumnazariy masalalar quyidagi jihatlarni nazarda tutish lozim:

Birinchidan, Amir Temur qudratli davlatga asos solgan hukmdor. O‘zbekistonning mustaqilligini mustahkamlashda bu omil juda muhim va Sohibqiron ulkan markazlashgan davlat asoschisi sifatida e’tirof etish zarur. Chunkiadolatni boshqaruvda asos sifatida ko‘rilishi tarixiy voqelik sifatida markazlashgan davlat uchun asos vazifasini bajargan. Zero, “Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim”¹⁶, degan so‘zları biz uchun katta namunadir.

